



## QISHLOQ XO‘JALIGIDA UNUMDORLIK VA MANFAATDORLIKNI OSHIRISH CHORALARI BELGILANDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 12-fevral kuni qishloq xo‘jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi ham miqdor, ham samaradorlik jihatidan rivojlanmoqda. Klaster tizimi orqali yuqori unumli texnika va chuqur qayta ishlash kirib kelmoqda.

2023-yilda sohada ishlab chiqarish 4,1 foizga o‘rib, 426 trillion so‘mni tashkil qilgan. Eksport esa qariyb 2 milliard dollarga yetgan. 152 ming gektar bog‘ va tokzorlar barpo etilib, 185 ming tonna meva-sabzavot, 31 ming tonna go‘sht va 485 ming tonna sutni qayta ishlash quvvatlari ishga tushirilgan.

Yaqin tariximizda ilk bor paxtadan 3 million 700 ming tonna, g‘alladan 8 million tonna hosil olindi. Ularning hisobini yuritish va mahsulotni sotish tizimi to‘liq raqamlashtirildi.

Yig‘ilishda asosiy e‘tibor qishloq xo‘jaligida unumdorlikni oshirish, tannarxni kamaytirish, suvni tejashga qaratilib, galdagi vazifalar belgilandi.

Prezidentimiz yer va suv resurslari cheklangan sharoitda yangicha ishlab, mahsulotni ko‘paytirish, sohaga sanoat muhitini olib kirish zarurligini ta’kidladi.

Masalan, yurtimizda bir gektar maydondan olinadigan o‘rtacha hosil ilg‘or mamlakatlardagiga qaraganda kam. Lekin o‘g‘it ham, yoqilg‘i ham, suv ham 2 karra ko‘p ishlatiladi. Shu bois, xorijdan serunum chigit va urug‘lar olib kelib, dehqonlarni yangi agrotexnologiyalarga o‘qitib, hosildorlikni paxtada 50 sentner, g‘allada 100 sentnergacha yetkazish mumkinligi aytiladi.

Davlatimiz rahbari fermerlarning manfaatdorligi masalasiga alohida e‘tibor qaratdi. Bugungi kunda yangi tartib asosida paxta xom-ashyosi birja orqali sotilmoqda. Nyu-York birjasida paxta narxi oshmoqda. G‘allachilikda ham bozor munosabatlari hisobiga fermerlarning daromadi 2 baravar ortgan.

Agar dehqon va fermerni iqtisodiy manfaatdor qilsak, ular davlat mablag‘isiz ham ishlay oladigan vaqtlar keladi. Mening maqsadim shu, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Manfaatdorlikni yanada oshirish uchun bu yil paxtachilikda bo‘lgani kabi g‘alla yetishtirishda ham imtiyozli kreditni to‘g‘ridan-to‘g‘ri fermerga berish tizimi joriy qilinadi. Bundan tashqari, davlat resursi uchun xarid qilingan bug‘doyni daladan tashib kelish va saqlash xarajati ham to‘liq byudjetdan qoplanadi.

Fermer xo‘jaliklarining barqarorligida xarajat kamligi ham muhim. Shuning uchun mineral o‘g‘itlar tannarxini bu yil 15 foizga kamaytirish, ularni birjaga yetarlicha chiqarish, yana 70 ta tumanda o‘g‘it omborlari tashkil qilish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Shuningdek, mineral o‘g‘it sifati va ustamasi alohida nazoratga olinadi. Fermerlarga o‘z hisobidan o‘g‘it sotib olish bo‘yicha qulaylik yaratiladi. Joylardagi omborlardan mineral o‘g‘itni tashish uchun transportni logistika portalida majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi bekor qilinadi.

Suv yo‘qotilishini kamaytirish maqsadida bu yil 75 ta yirik kanalni betonlashga budjetdan 680 milliard so‘m ajratilgan. Suv tejovchi texnologiyalar uchun 3 yil imtiyozli davr bilan 5 yilga 14 foizli kredit berish yo‘lga qo‘yilgan. Yig‘ilishda bu borada hududlardagi ishlar tahlil qilinib, sustkashliklar ko‘rsatib o‘tildi.

Sohada hisob-kitob intizomida ham kamchiliklar borligi aytiladi. Masalan, klasterlarning fermerlar oldidagi qarzdorligi hali to‘liq to‘lanmagan.

Endi yangi tizimga ko‘ra, oldingi qarzini 1-aprelgacha to‘liq to‘lamagan klaster bilan fyuchers shartnomasi bekor qilinadi va fermerga paxtani birjada sotishga ruxsat beriladi. Ma‘lumotni elektron platformaga kiritgan va fyuchers shartnoma imzolagan fermerga kredit ko‘pi bilan uch kun ichida ajratilishi shart etib belgilandi.

Yig‘ilishda meva-sabzavot yetishtirish hamda eksporti hajmini oshirish choralari ham ko‘rib chiqildi.

Buning uchun avval ajratilgan 200 ming gektarga qo‘shimcha, yana 60 ming gektar yer aholiga tarqatib beriladi. Shuningdek, to‘morqalarda kooperatsiya asosida mahsulot yetishtirish qo‘llab-quvvatlanadi. Bu maqsadlarga 100 million so‘mgacha garovsiz, 150 million so‘mgacha garov ta‘minoti pasaytirilgan holda imtiyozli kreditlar taqdim etiladi. Fermer va dehqonlarga zarur texnikalar “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 10 yil muddatga 3 yil imtiyozli davr bilan lizingga beriladi. Chetdan olib kelinadigan motokultivator va minitraktorlarga bojxona imtiyozlari 3 yilga uzaytiriladi.

So‘nggi yillarda yurtimizda issiqxona maydonlari, ularda yetishtirilgan mahsulotlar hajmi 3 barobargacha ko‘paygan. Bugungi kunda yoqilg‘isiz isitiladigan issiqxonalar barpo qilish omiallashib boryapti.

Prezident bu tajribani ma‘qullab, ularni ko‘paytirish, dehqonlarga tayyor holda qurib berish zarurligini ta’kidladi. Buning uchun “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi doirasida 100 million so‘mgacha garovsiz kredit beriladi.

Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar ham faol jalb etilmoqda. Joriy yilda 655 million dollar

xorijiy sarmoyani o‘zlashtirish rejalashtirilgan. Loyihalarda bozorga sarxil mahsulotlar yetkazib berish, oziq-ovqat inflyatsiyasini kamaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, import o‘rnini bosuvchi 25 turdagi oziq-ovqat bo‘yicha 342 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Buni davom ettirib, yangi loyihalar ishlab chiqish, xalqaro brendlarni jalb qilish muhimligi ta’kidlandi.

Jahon banki mablag‘lari hisobidan yangi loyihalar uchun 10 yil muddatga, aylanma mablag‘ uchun 2 yil muddatga milliy valyutada 18 foizdan kredit ajratiladi. Mashhur brendlar buyurtmalarini korxonalariga joylashtiradigan sorsing kompaniyalarni jalb qilish xarajatining 50 foizi qoplanadi. Bunda har bir brendga 500 million so‘mgacha subsidiya beriladi.

Endilikda so‘mda eksport qilgan tadbirkorlarga ham qo‘shilgan qiymat solig‘i qaytarib berilishi ma‘lum qilindi.

Yig‘ilishda chorvachilik, ipakchilik va baliqchilik tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash choralari ham belgilandi.

Xususan, chorva kompleksi tashkil qilish, qoramol olish, omixta yem chiqarish uchun milliy valyutada 17 foizdan 3 yil imtiyozli davr bilan 10 yilga kredit beriladi. Chorva xo‘jaliklarini aylanma mablag‘ bilan ta‘minlashga ham 1 trillion so‘m imtiyozli kredit yo‘natiladi. Uning 18 foizdan oshgan qismi Tadbirkorlik jamg‘armasidan qoplab beriladi.

Pillani Viyetnam va Xitoy tajribasi asosida sanoat usulida yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi, o‘rma tutzorlar barpo etiladi. Ipakchilik instituti huzurida 2 ta nasilli urug‘lik stansiyasi ishga tushiriladi.

Tarmoqda moddiy manfaatdorlikni oshirish uchun ikki bosqichda bozor tamoyillariga o‘tiladi. Bu yil birinchi bosqichda pilla narxi 25 foizga oshiriladi. Aholiga pilla yetishtirish uchun subsidiya beriladi va pilla yetishtiruvchilar daromad solig‘idan ozod qilinadi. Ikkinchi bosqichda 2025-yildan narxni davlat belgilashi, klasterlarga muayyan tuman va fermerlar biriktirilishidan voz kechiladi. Pilla fermer bilan klaster o‘rtasida erkin narxda tuziladigan shartnoma asosida yoki birja orqali sotiladi.

Daryo bo‘ylarida va xonadonlarda havzalar o‘rnatib, baliq yetishtirishni ko‘paytirish bo‘yicha ham vazifalar ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar bo‘yicha mutasaddilarning hisobot va rejalari eshitildi.

O‘ZA

## BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING YOVVOYI HAYVONLARNING KO‘CHIB YURUVCHI TURLARINI SAQLAB QOLISHGA DOIR KONVENSIYASI TOMONLAR KONFERENSIYASINING 14-YIG‘ILISHI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli delegatlar!

Xonimlar va janoblar!

Atrof-muhit va bioxilma-xillikni saqlash yo‘lidagi muhim xalqaro tadbir — Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi yig‘ilishining barcha ishtirokchilari va mehmonlarini samimiy tabriklayman.

Avvalambor, Konvensiya kotibiyati va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha dasturiga ushbu nufuzli anjumanni mamlakatimizda o‘tkazish tashabbusini qo‘llab-quvvatlagani uchun chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri, bebaho me‘morchilik durdonasi hisoblangan ko‘hna Samarqandga xush kelibsiz!

So‘nggi yillarda ushbu qadimiy va betakror shahar qator dolzarb muammolar bo‘yicha muloqotlarning global markaziga aylanib bormoqda. Mazkur forum Samarqandning ekologik diplomatiyaning ta’sirli markazlaridan biri sifatida maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda 2023-yilning dekabr oyida bu yerda cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro anjuman o‘tkazilganini, joriy yil aprel oyida esa Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishlariga bag‘ishlangan yirik forum tashkil etilishini alohida ta’kidlamochim.

Hurmatli konvensiya ishtirokchilari! Barchangizga yaxshi ma‘lumki, hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlari sayyoramiz ekotizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Afuski, hozirgi kunda ular iqlim o‘zgarishi, yashash joylarining yaroqsiz holga kelishi, noqonuniy ov va savdo kabi jiddiy tahdidlar bilan to‘qnash kelmoqda.

Natijada hayvonlarning genetik resurslari qisqarmoqda, ularning nodir va noyob turlari, tabiiy uyg‘unlik va ekotizimlar yo‘qolib bormoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra, Yer yuzidan so‘nggi 50 yilda ularning 100 dan ortiq turlari, Markaziy Osiyoda esa 26 turdagi qushlar, 12 turdagi sut emizuvchilar, jumladan, Turon yo‘lbarisi, Osiyo qoploni va boshqa endemik turlar butunlay yo‘q bo‘lib ketdi.

Bioxilma-xillikni kelajak avlodlar va barqaror rivojlanish uchun saqlash, inson hayotining tabiat bilan uyg‘unligini ta‘minlash — bizning umumiy maqsadimizdir. Bu butun xalqaro hamjamiyat sa’y-harakatlarini birlashtirishni, muvofiqlashtirilgan va kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O‘zbekistonda ko‘chib yuruvchi yovvoyi hayvonlar turlarini saqlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda, eng avvalo, sohaning huquqiy bazasi takomillashtirildi, yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ularning samarali ijrosi ta‘minlanmoqda. Davlat boshqaruv organlari, biznes va fuqarolik jamiyatlarining ijtimoiy mas’uliyatini oshirishni qamrab olgan institutsional tizim mustahkamlanmoqda.

Mazkur sohada fundamental va amaliy tadqiqotlarning eng ilg‘or maktabi bo‘lgan Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti o‘z faoliyatini qayta tikladi. Qisqa muddatda ko‘chib yuruvchi turlarni ishonchli himoya qilishni ta‘minlovchi qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar uch karraga oshirilib, mamlakatimiz umumiy maydonining 14 foiziga yetkazildi. O‘zbekistonning nodir tabiat landshaftlari UNESCOning Butunjahon tabiiy meros ro‘yxati, Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog‘iga va Ramsar konvensiyasi obyektlari ro‘yxatiga kiritildi.

Yovvoyi hayvonlarni parvarish qilish uchun yangi pitomniklar tashkil etildi. Noyob qush turlari va sut emizuvchilarni o‘z yashash makonlarida ko‘payishini qayta tiklash bo‘yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘monlar yaratilgan o‘simliklar xilma-xilligini va hayvonot dunyosini qayta tiklash imkonini bermoqda.

O‘zbekiston 2024-2027-yillarda Konvensiyaga raisligi davrida ko‘chib yuruvchi hayvon turlarini himoya qilishga o‘zining butun kuch va salohiyatini to‘liq safarbar qilishga tayyordir. Biz Samarqandda bu borada kelgusidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan

2024-2032-yillarga mo‘ljallangan Yangi strategik reja tasdiqlanayotganini olqishlaymiz.

Shuningdek, Hayvonlarning ko‘chishiga to‘siqlardan xoli ekologik yo‘laklarni yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Infratuzilma obyektlari — avtomobil va temir yo‘llar, gaz quvurlari va chegara inshootlarining qurilishi yovvoyi hayvonlar migratsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini kamaytirish uchun ekologik baho berilishi bo‘yicha talabni kuchaytirish muhim, deb hisoblaymiz.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston transchegaraviy tabiiy parklar yaratish bo‘yicha mintaqa mamlakatlari bilan yaqin hamkorlik qilmoqda va ular sonini keskin ko‘paytirish niyatidamiz.

Bir vaqtlar Ustyurt platosi kengliklarida yashagan va inson omili ta’sirida yo‘qolib ketgan Osiyo qoploni populyatsiyasini qayta iqlimlashtirishni boshlash niyatidamiz. Olimlar va ekspertlarni bu yo‘nalishda hamkorlikka chorlab qolamiz.

Fursatdan foydalanib, Atrof-muhitni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining Toshkentda o‘z vakolatxonasini ochish bo‘yicha qarori uchun alohida tashakkur aytmoqchiman. Biz tashkilotning mintaqamiz flora va faunasini saqlab qolishdek xayrli faoliyatiga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatishga tayyormiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bugungi konvensiyada qabul qilingan qarorlarning hayotga tatbiq etilishi ko‘chib yuradigan yovvoyi hayvonlarni saqlash bo‘yicha xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu yo‘ldagi sharafli va mas’uliyatli ishlaringizda sizlarga katta omadlar, kuch-g‘ayrat va yangi muvaffaqiyatlar yor bo‘lishini tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti**

## TADBIRKOR MA‘NAVIYATI yangi davr talablariga javob beryaptimi?



**Bugungi kunda Prezidentimizning Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishidagi ma‘ruzasi asosida jamiyatimiz ma‘naviy rivojini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan tizimli faoliyat dasturlari ishlab chiqilib, ularni bajarish yo‘llari belgilab olindi.**

Ma‘ruzaning “Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” deb nomlangani bejiz emas, albatta. U jamiyatimizda yangi ma‘naviy makonni yaratish, g‘oyaviy barkamol avlodni voyaga yetkazish strategiyasining nafaqat joriy yil, balki kelgusi yillardagi faoliyati uchun ham tayanch hujjat vazifasini o‘taydi.

Ilmiy-nazariy jihatdan ushbu ma‘ruza hozirgi yangi bosqichdagi keng qamrovli ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, jumladan, tadbirkorlar va mulkdorlar qatlamining butun jamiyat manfaatlariga mos yangi ma‘naviy qiyofasini shakllantirish yo‘nalishidagi ishlarning muhim dasturilamali ekani ham shubhasiz.

**Davomi 3-betda**

## TABIAT CHEGARA BILMAYDI

**12-fevral kuni Samarqanddagi Kongress markazida BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini saqlash bo‘yicha konvensiyasi (CMS COP14) ishtirokchilari konferensiyasi 14-yig‘ilishining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.**

1979-yilda Germaniyaning Bonn shahrida qabul qilingan va 1983-yilda kuchga kirgan mazkur konvensiyaga dunyoning 133 davlati a‘zo hisoblanadi. O‘zbekiston 1998-yilda konvensiyaga qo‘shilgan va shundan buyon uning ishida faol qatnashib kelmoqda. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlari orasida ilk bor yurtimizda konvensiya ishtirokchilari konferensiyasining yig‘ilishi o‘tkazilmoqda. Bundan avvalgi 13-yig‘ilish pandemiyadan oldin Hindistonda tashkil etilgan. O‘tgan davr mobaynida yig‘ilib qolgan ko‘plab masalalarga ishtirokchilar 26 turdagi barcha muhim

mavzular yuzasidan yuzma-yuz fikr almashishga ahd qilgan. “Tabiat chegaraga bilmaydi” shiori ostida o‘tkazilayotgan yig‘ilishda xalqaro tashkilotlar vakillari, 130 mamlakatdan 1800 dan ortiq ishtirokchi qatnashmoqda. Dastlab Prezident Shavkat Mirziyoyevning forum qatnashchilariga tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov o‘qib eshittirdi.

**Davomi 2-betda**

**EKOLOGIYA:**  
**“TABIY MUHITNI ASL HOLIGA KELTIRISH” UCHUN TA’SIRCHAN CHORA QO‘LLASH ZARUR**

**JKning “Ekologiya sohasidagi jinoyatlar”ga bag‘ishlangan bobidagi 11 ta moddadan faqat 3 tasi “ishlab turibdi”, 7 tasi “qotib qolgan”, ishlamaypti.**



## Munosabat

## QAMROV VA SIFAT UYGʻUNLIGI

## taʼlim tizimi samaradorligining zarur shartiga aylandi

Ulugʻbek INOYATOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi Spikeri oʻrinbosari

Har bir inson farzandiga dunyodagi barcha yaxshiligi eziguliklarni tilaydi. Oʻzimiz yetisha olmagan orzularimiz, rejalarimizga farzandlarimiz erishishini xohlaymiz. Yoki aksincha, xatarlarimiz farzandlarimizda ham takrorlanishini istamaymiz. Imkon qadar ular hayotda oʻz oʻrnini topishga koʻmaklashamiz. Sir emaski, bolalikda egallangan bilim inson xotirasida bir umr qoladi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 5-fevral kuni oʻtkazilgan ijtimoiy sohadagi ustuvor vazirlarga bagʻishlangan yigʻilishda taʼlim tizimidagi ahvol tanqidiy tahlil qililib, kelgusi rejalar belgilab berildi.

Maktabgacha taʼlim sohasidagi islohotlar natijasida bugungi kunda yurtimizda maktabgacha taʼlimda qamrov 74 foizga yetdi. 2016-yil bilan taqqoslasak, bu koʻrsatkich oʻsha yili 27 foizni tashkil etgan.

Maktabgacha taʼlim bolaning hissiy rivojlanishi, shaxsiyatini shakllantirish va uning jamoadagi rolini anglashiga koʻmak beradigan vositadir. Bolalar aynan bogʻchada intizom va masʼuliyatni oʻrganadi. Dunyoga boshqa nigoh bilan qaray boshlaydi. Oʻz vaqtida ovqatlanish, inson salomatligi uchun muhim boʻlgan bir rejimga tushishni oʻzlashtiradi. Boshqalarni hurmat qilish va oʻzini jamoaning bir qismi deb bilishga odatlanadi. Baʼzan oila aʼzolaridan uzoqlashish bolalarga mustaqillik va masʼuliyatni toʻliq namoyon qilish imkonini beradi. Bola oʻzi kiyinishni, ovqatlanish va hatto oʻynashni boshlaydi. Dunyoni anglash, ongni rivojlantirish oson kechadi. Umuman, bolalar bogʻchasi oʻziga xos parallel dunyo boʻlib, bola tinglashni-eshitishni, qarashni-koʻrishni, taqqoslashni, his qilish va sinab koʻrishni oʻrganadi, hatto siz harakat qilsangiz ham uyda yaratib bera olmaydigan muhitda hayotga tayyor boʻlib boradi.

Farzandning bogʻchaga borishi ota-onalar uchun oʻz maqsadlarini amalga oshirish, majburiyatini toʻkis bajarish imkoniyatini yaratadi.

Birinchidan, ota ham, ona ham mehnat qilib, ilm-hunar tutib, ijtimoiy-iqtisodiy faol insonlarga aylanadi.

Ikkinchidan, daromad topib, oilasining turmush sharoitini yaxshilash, bolalarini yaxshi boqish, rivojlantirish uchun qoʻshimcha jamgʻarma toʻplay oladi.

Uchinchidan, ota-onalar koʻproq vaqtga ega boʻlib, oʻzini ham rivojlantiradi.

Bu omillar nafaqat oilalar, butun jamiyat yaxshilanishiga asos boʻladi. Shular haqida oʻylasak, Prezidentimizning qatʼiy irodasi va talabi bilan maktabgacha taʼlim qamrovi 74 foizga yetkazilgan naqadar muhim ekanini yanada oydinlashadi. Albatta, bunday natijalarga osonlik bilan erishilayotgani yoʻq. Hali joylarda kamchiliklar, haqiqiy sifat bosqichiga oʻtish boʻyicha katta vazifalar turibdi.

Yigʻilishda bu yil davlat bogʻchalari quvvati yana 10 ming oʻringa, xususiy bogʻchalarda 50 ming oʻringa oshirilishi lozimligi, oʻlis qishloq joylarda bogʻcha tashkil etish ishlarini kuchaytirish kerakligi taʼkidlanib, zarur topshiriqlar berildi.

## FARZANDLAR YUTUGʻI BIZNING MUVAFFAQIYATIMIZDIR

Bolalarning maktabgacha taʼlim bilan qamrovini oshirish haqida gap borar ekan, ularga taʼlim beruvchi tarbiyachilarning bilimini oshirishga eʼtibor qaratish ham muhim masalalardan biridir. Afsuski, har yili bogʻcha tarbiyachilarining oʻrtacha bor-yoʻgi 9 foizi malaka oshirishga intilmoqda.

Har bir oilaning farzandi maktabgacha taʼlim tashkilotiga borishi uchun intilayotgan ekanmiz, ularning qimmatli vaqti zoye ketmasligiga ham masʼulmiz. Bogʻchada bolalar qiziqarli oʻyinlar, belgilangan dasturlar asosida bilimga ega boʻlib borishi, vaqtini chogʻ oʻtkazishi zarur.

Yurtimizdagi 12 mingta oilaviy bogʻchada davlat taʼlim standartidagi oʻquv-metodik materiallar yetarli emasligi oʻrinli tanqid qilindi. Bogʻcha bolalar ishtiyok bilan boradigan, intiladigan sevimli maskanaga aylanishi muhim. Agar bogʻchalardagi qamrovni oshirib, u yerdagi tarbiyachilar malakasiga eʼtibor qaratmas



Hokim YOʻLDOSHEV olgan suratlari.

ekanmiz, bu islohotlar zanjiridagi uzilishga olib keladi.

Shuni inobatga olgan holda, 250 ta davlat bogʻchasida taʼlim va tarbiya sifatini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy qilish topshirildi. Bogʻchalarni milliy qadriyatlarimizga mos yagona standartlar asosida oʻquv-metodik materiallar bilan taʼminlash zarurligi taʼkidlandi.

Bogʻchalar bolalarga tarbiya, taʼlim berish vazifasini astoydil, zamon talablari darajasida bajarishi kerak. Bunga intilgan bogʻchalar, tarbiyachilar ota-onalarning, asosiysi, bolalarning ishonchi, mehrini qozonishi qiyin. Shuning uchun har bir maktabgacha taʼlim tashkiloti endi oʻzini rivojlantirish haqida qaygʻurishi lozim. Davlatimiz rahbari belgilagan vazifalar zahirida mana shunday chaqiriq ham bor, albatta.

## PEDAGOG MAQOMI QONUN BILAN HIMOYALANDI

Maktab imkoniyatlar eshigini ochadi. Oʻquvchi qaysi mashgʻulot maroqliligini, qanday qobiliyati borligini ajratib, anglab olishi bilan bir qatorda, kelajakda qaysi kasbni tanlashini ham maktab davrida hal qiladi.

Bugungi kunda maktabda aksariyat oʻqituvchilarning kasbga munosabati oʻzgargan, mehri oshgan. Oʻz ustida ishlab, bilimini oshirib borayotgan, oʻziga xos metodika asosida yutuqqa erishayotgan oʻqituvchilar eʼtirof etilmoqda, qadr topmoqda.

Oʻqituvchilar hurmatga eng loyiq inson ekanini hayotning oʻzi anglatib qoʻydi. Endi eski qarashlar yoʻq. Oʻqituvchilarni bir yilda bir marotaba bayramda eʼzozlash emas, har kuni va har lahz qadrlash lozimligi hayotiy eʼtiqodga aylanmoqda.

Mamlakatimizda joriy yil 1-fevraldan “Pedagogning maqomi toʻgʻrisida”gi qonun kuchga kirdi. Ushbu qonun bilan pedagogning huquqlari, shaʼni, qadr-qimmat va ischanchlik obroʻsi davlat himoyasida ekanini belgilab qoʻyildi.

Pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan taʼlim oluvchilarning belimini toʻgʻri va xolis baholashga taʼsir koʻrsatish, shuningdek, unga oʻz xizmat majburiyatlarini bajarishga toʻsqinlik qilish taqiqlandi.

## NATIJA EʼTIBORGA MOS BOʻLISHI KERAK

Yigʻilishda taʼkidlanishicha, joriy yilda maktabgacha va maktab taʼlimiga 46 trillion soʻmdan ziyod mablagʻ ajratish rejalashtirilgan. Biroq oʻquvchining bilimi rejadagi koʻrsatkichga yetmagani tanqid qilindi. Yaʼni 1-11-sinflarda xorijiy tilga ajratilgan 984 soat doirasida oʻquvchilarning yarmi ham “B1” darajaga ega boʻla olmayapti. Shuningdek, ayrim hududlardagi malaka oshirish markazlarining faoliyati koʻrinmayapti.

Shundan kelib chiqib, maktab taʼlimidagi islohotlarni yanada jadallashtirishga qaratilgan vazifalar belgilab berildi. Maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar boʻyicha oʻquv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash, oʻquvchilar bilimi, tahilliy, tanqidiy va kreativ fikrlashi, muammolarga yechim topib, amaliyotda qoʻllay olish koʻnikmasini shakllantirishga qaratilgan oʻquv metodikalarini ishlab chiqish topshirildi.

Shuningdek, maktablarda tarbiya va maʼnaviyat ogʻriqli masalalardan biri ekanini taʼkidlandi. Oʻtgan yili voyaga yetmaganlar 3,5 mingta jinoyat sodir etgan. Shundan 2280 nafarini maktab oʻquvchilari tashkil qiladi. Soʻrov maktab direktoridan boʻlaypti, lekin Bolalar masalalari boʻyicha milliy komissiyaga masʼul hokimlar har hafta bitta maktabga borib, oʻquvchilarning sharoiti va tarbiyasi bilan shugʻullanmayapti, dedi davlatimiz rahbari.

Maktab insonni fikrlashga, tahlilga, muammolarni mustaqil hal qilishga va oʻzini oʻzi tarbiyalashga oʻrgatadi. Maktabga nafaqat bilim olish, balki shaxs sifatida yetishish uchun boriladi.

Joriy yilda Prezident maktablari taʼlim dasturi yana mingta maktabda boshlanadi. Hokimlar esa ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilashga masʼul qilib qoʻyildi.

Bugungi kunda maktablar mutlaqo yangicha formatda bunoyd etilmoqda, qoʻshimcha binolar qurilmoqda, qayta taʼmirlanmoqda. Har bir maktabni zamon talablari asosida jihozlash, moddiy-texnik bazasini ilgʻor davlatlardagi singari yangilash talabi qoʻyilmoqda. Zamonaviy oʻquv va badiiy adabiyotlar xarid qilimoqda. Lekin taʼlim mazmunini, dasturlari va darslarini kuchaytirish, ilgʻor davlatlardagi tajriba bilan uygʻunlashtirish soha fidoyilarining zimmasida boʻlib qolaveradi.

Shu maʼnoda, keyingi yillarda taʼlim sifatini yaxshilash, oʻqituvchilarning malakasini yanada oshirish masalasiga oʻzgacha nuqtayi nazardan yondashilmoqda. Xalqaro tajriba oʻrganilib, eng samarali deb topilgan usullar taʼlim tizimiga olib kirilmoqda. Dasturlar, meʼyor va standartlar oʻzgarsa, albatta, bolalarning taʼlim, tarbiya darajasi ham shunga mos boʻlishi boshlaydi. Hududlardagi Prezident maktablari oʻquvchilari katta natijalarga erishayotgani, har tomonlama oʻzlarini koʻrsatayotgani boshqa oʻquvchilar, ota-onalarning ham ushbu maktablar dasturiga qiziqishini oshirganini alohida taʼkidlash kerak.

Taʼlim sohasidagi yutuqlarimizdan biri maktablarda 500 nafar “til egalari” ish boshlagani oʻz samarasini berayotganidir. Dunyo tillarini puxta bilmay turib, dunyoviy bilimlarni egallab boʻlmaydi. Farzandlarimizni bolalikdan qoʻl

nechta tilda soʻzlasha olishga oʻrgatish ularning kelgusida ham oʻqish, bilim olish, oʻrganishga boʻlgan ishtiyogini ragʻbatlantiradi.

## KASB-HUNAR EGALLASH MUHIM

Maktablarda oʻrgatish mumkin boʻlgan 50 ta kasb-hunar roʻyxati tuzilib, har biri boʻyicha oʻquv va amaliyot dasturlari ishlab chiqiladi. Buning uchun maktablarda ustaxonalar tashkil etiladi va “Kasbiy taʼlim ustasi” lavozimi joriy etiladi.

Chindan ham yoshlarning kasb-hunarli boʻlishi muhimdir. Ota-bobalarimiz kasb-hunarli boʻlish masalasini bejiz hayotiy eʼtiqod darajasiga koʻtarmagan. Bu yoshlarning oʻzini anglashi, oilada, jamiyada oʻz oʻrnini his etishi uchun ham zarur.

Maktab taʼlimini tugatib, biror kasbni tanlay olmagan oʻspirinning boʻsh qolishi, yoʻl-yoʻnalish topa olmasligi turli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Kasbga oʻrgatish amaliyoti orqali yoshlarga kasb tanlashda yaqindan koʻmakchi boʻlish koʻzda tutilgan.

Maktabni bitirayotgan har bir oʻquvchi hech boʻlmaganda bitta kasbning egasi boʻlib chiqishiga erishish, sevgan kasbini topishga yordamlashish insonning oʻzi anglamagan isteʼdodi, imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishga xizmat qiladi. Koʻngilga yaqin kasbni topish mehr berib ishlash, degani hamdir. Jamiyatda oʻz ishini yaxshi koʻrib bajaradigan odamlar, ayniqsa, yoshlar qancha koʻpaysa, umumiy kayfiyat va muhit ham yaxshilanadi.

## “MAKTAB — OTA-ONA — MAHALLA” ZANJIRI

Davlatimiz rahbari taʼlim sohasidagi islohotlarni bosqichma-bosqich takomilliga yetkazishni belgilab berar ekan, qoʻyilayotgan har bir vazifa, topshiriq muhim va dolzarbligini anglatdi kishi.

Maktablar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, oʻqituvchilarning malakasini oshirish, taʼlim dasturlari, oʻquv metodikalarini yaxshilash ustida shuncha ish olib borilayotgan ekan, davomat masalasini nazardan chetda qoldirib boʻlmaydi. Bu vazifalar, topshiriqlar, mehnatlar kim uchun? Albatta, oʻquvchilar uchun, ularning kelajagi, hayotda oʻz oʻrnini topishi va mamlakat taraqqiyotiga hissa qoʻshishi uchun.

Modomiki, ota-onalar farzandlarining maktabga borishini nazorat qilmas, mahalla maktabdan uzoqlashar ekan, yangi natijalar bilan xursand boʻla olmaymiz.

Har bir ota-ona farzandi uchun masʼul boʻlishi shart. Har bir mahalla maktabdagi davomat darajasini oʻrganib, maktabga bormayotgan oʻquvchilarning oilaviy sharoiti, muammolarini oʻrganishi, sababini aniqlashi, yechim topishda koʻmakdosh boʻlishi muhim.

Katta mablagʻ, kuch, mehnat sarf qililib, taʼlim tizimida olib borilayotgan islohotlarni masʼullar, oʻqituvchi-pedagoglar, mahalla, ota-onalar, umuman, barchamiz birdek tushunib, qoʻllab-quvvatlashimiz lozim. Shunda farzandlariga eng yaxshisini tilaydigan xalq ekanimiz taʼlim, tarbiya sifatida ham yaqqol koʻrinadi.

## TABIAT CHEGARA BILMAYDI



Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, tadbirda BMT Bosh kotibi oʻrinbosari, tashkilotning atrof-muhit boʻyicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen xonim, Koʻchib yuruvchi turlar boʻyicha konvensiya ijrochi kotibi Emi Frankel, Global ekologik jamgʻarma

bosh direktori Karlos Rodriges, Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) Bosh direktori Gretel Agilar va boshqalar soʻzga chiqib, mazkur tadbir dunyoda iqlim oʻzgarishlari kuchayib borayotgan bugungi sharoitda muhim ahamiyatga ega ekanini taʼkidladilar.

— Biz bugun migratsiya turlari kelajagi uchun hal qiluvchi pallada turibmiz, — dedi koʻchib yuruvchi turlar boʻyicha konvensiya ijrochi kotibi Emi Frankel. — Markaziy Osiyoda ilk bor oʻtkazilayotgan ushbu uchrashuv koʻchib yuruvchi turlarni saqlashga sodiq boʻlgan hukumatlar va jahon jamoiyatini birlashtirgan holda transchegaraviy hamkorlik muhimligini koʻrsatmoqda. Yigʻilishimiz kun tartibi keng qamrovli. Unda koʻplab masalalarni muhokama etish, bir qator muhim hujjatlar qabul qilish koʻzda tutilgan. Har yili milliardlab hayvonlar yerda, okeanlarda va osmonda koʻchib yuradi, milliy chegaralar va qitʼalarni kesib oʻtadi. Baʼzilari esa oziqlanish va koʻpayish uchun dunyo boʻylab minglab kilometr yoʻl bosadi. Ular yaxshi ishlaydigan ekotizimlarning ajralmas qismi, jumladan, oziq-ovqat manbai, turizmdan olinadigan iqtisodiy foyda va oʻsimliklarni changlatish, asosiy ozuqa moddalarini tashish, zararkunandalarni yoʻq qilishda ahamiyati katta. Shuning uchun ularga eʼtibor shunga yarasha boʻlishi kerak. Konvensiyaga aʼzo davlatlar vakillari, vazirlar, xalqaro tashkilotlar masʼullari bilan bugun yoʻqolish ketish xavfi oshib borayotgan turlar boʻyicha fikr almashamiz, oʻzimizning xulosalarimizni taqdim etamiz. Va albatta, kelgusidagi vazifalarni belgilab olamiz.

Oʻzbekiston ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri Aziz Abdurahimov davlatimiz rahbarining alohida eʼtibori bilan atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishining oldini olish borasida zarur chora-tadbirlar koʻrilayotganini taʼkidladi. Muhofaza etiladigan hududlar maydonini 6 million gektarga yetkazish boʻyicha saʼy-harakatlar, respublika boʻylab

har yili 200 million tup koʻchat ekish koʻzda tutilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilayotgani, Orolboʻyi hududi ekotizimlari yaxshilanayotgani shular jumlasidandir.

— Ushbu hafta davomida biz migratsiya turlari bilan bogʻliq qator masalalarni, jumladan, iqlim oʻzgarishining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarini



muhokama qilamiz, — dedi A.Abdurahimov.

— Maqsadimiz — ekotizimlar va sogʻlom sayyorani saqlashda muhim rol oʻynaydigan koʻchib yuruvchi turlarni saqlash boʻyicha yechim topish va samarali rejalar ishlab chiqish.

CMS COP14 ning bir haftalik kun tartibida yuzdan ortiq masalalarni koʻrib chiqish koʻzda tutilgan. Jumladan, birinchi kungi tadbirlar doirasida koʻchib yuruvchi yovvoyi tabiat turlarining holati toʻgʻrisidagi birinchi global hisobot taqdimoti boʻlib oʻtdi. Shuningdek, koʻchib yuruvchi turlar va Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish yoʻlida hamkorlik, koʻchib yuruvchi turlarni saqlash boʻyicha transchegaraviy va mintaqaviy hamkorlik masalalari muhokama etildi.

Tadbirlar doirasida Oʻzbekiston ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri Aziz Abdurahimov BMT Bosh kotibi oʻrinbosari, tashkilotning atrof-muhit dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen xonim va boshqa nufuzli mehmonlar, delegatsiyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar oʻtkazdi.

Xalqaro forum davom etmoqda.

Gʻolib HASANOV,  
Oʻza muxbiri



## Buyuk o'zbek yo'li

## TADBIRKOR MA'NAVIYATI

## yangi davr talablariga javob beryaptimi?

## (Birinchi maqola)

Qiyom NAZAROV,  
falsafa fanlari doktori,  
professor

Boshlanishi 1-betda

QULAY BIZNES  
MUHITI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq tadbirkorlik va ishbilarmonlik harakatiga keng yo'l ochilib, mulkchilik munosabatlari o'zgardi, tadbirkorlar va mulkdorlar qatlami shakllana boshladi. O'tgan o'n yilliklarda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va "Tadbirkor ayol" uyushmasi kabi tashkilotlarning paydo bo'lgani ana shu serqirra jarayonning natijasidir.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi davrini boshlab bergan keyingi yillarda tadbirkorlik va mulkdorlik bilan bog'liq masalalarga yanada katta e'tibor berilmoqda va bu bejiz emas. Negaki, jahon xalqlari va zamonaviy ilg'or mamlakatlar iqtisodiyotining natijadorligi, harakatchanligi, dinamikligini ta'minlash hamda rivojlantirishda tadbirkorlarning o'ziga xos o'rni borligi allaqachon isbotlangan. U bugungi taraqqiy etgan mamlakatlar hayotining asosiy elementlaridan va bizning yurtimiz iqtisodiyoti uchun ham eng muhim omillardan biri sifatida o'z samaradorligini ko'rsatmoqda.

Ishbilarmon doiralari vakillari bo'lgan tadbirkorlik va mulkdorlik subyektlari uchun 2023-yil alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, o'tgan yilning 18-avgust kuni O'zbekiston tarixida uchinchi marta Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va ushbu hujjat bilan 42 ta banddan iborat "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha 57 ta tashabbus ilgari surilgan. Qaror bilan 5 ta yo'nalish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ga asosan 11 ta qonun, Prezidentimizning 1 ta farmoni, 15 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 10 ta qarori, 10

soni 2 mingga oshib, 10 mingga yetdi, yirik korxonalar soni esa bir yilda 400 taga ko'payib, 1,5 ming bo'ldi. Bu ko'rsatkich Toshkent viloyatida 38 ming 876 taga, Samarqand viloyatida 37 ming 680 taga, Farg'ona viloyatida 36 ming 359 taga yetdi. Tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 14,1 tani tashkil etyapti. Bu ko'rsatkich Samarqand viloyatida 11,8 ta, Toshkent viloyatida 15,2 ta, Farg'ona 11,9 ta. 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik tadbirkorlikning ulushi 25,9 foizni tashkil qildi.

Bularning barchasi ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilayotgani, islohotlar aniq-tiniq amalga oshirilayotgani bilan izohlanadi. Bunda quyidagi yo'nalishlar nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchidan, biznes subyektlari mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga bo'lindi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlab so'nggi ikki yilda korxonalar tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulotlar eksport qilindi va avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda ana shunday natijalarga erishayotgan, ishlab chiqarish, servis va xo'jalik yuritishning boshqa sohalarda tashabbus ko'rsatayotgan, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan faol tadbirkorlar avlodini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, import o'rini bosuvchi va eksportkor mahsulotlar ishlab chiqarishga, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan ilg'or tadbirkorlarning faoliyati ham jamiyat rivoji uchun muhim omil hisoblanadi.

Aytilgan joizki, hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanishini rag'batlantiruvchi biznes muhitini yaratish, mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyati, tadbirkorlarning kasbiy mahorati va bilim darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratish alohida e'tiborni talab qilmoqda.

Uchinchidan, kredit berishda aylanmadagi tovarlar, eksport shartnomalari, akkreditivlar va kelgusi tushumlardan ham garov ta'minoti sifatida foydalanish tizimi yaratildi. Bu imkoniyatdan foydalangan tadbirkorlarga 1 milliard dollar kreditlar berildi. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlarini ochish tartibi osonlashdi. Natijada mamlakatimizda banklarga muqobil kreditlar bozori paydo bo'ldi. So'nggi bir yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so'm kredit berdi.

Bojxona hududida qayta ishlab so'nggi ikki yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so'm kredit berdi.

Bojxona hududida qayta ishlab so'nggi ikki yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so'm kredit berdi.

Bojxona hududida qayta ishlab so'nggi ikki yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so'm kredit berdi.

Bojxona hududida qayta ishlab so'nggi ikki yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so'm kredit berdi.

Bojxona hududida qayta ishlab so'nggi ikki yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so'm kredit berdi.

2023-yilning olti oyida tekshirishlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40 foiz yoki 104 mingdan 64 mingga kamaygan. Ya'ni tadbirkorlar to'g'ri ishlab "soyada" ishlabdan ko'ra afzal ekanini tushunib yetmoqda. Shuning uchun ham soliq hisobotlarini topshirish va kameral tekshirish natijalari bo'yicha moliyaviy jarimalar qo'llash bekor qilindi. Berilgan yengilliklardan foydalangan 155 korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshdi. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetdi. Bu 2017-yilga nisbatan 3 barobar ko'p.

Bo'lib o'tgan ochiq muloqotlardan keyin so'nggi ikki yilda korxonalar tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulotlar eksport qilindi va avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda ana shunday natijalarga erishayotgan, ishlab chiqarish, servis va xo'jalik yuritishning boshqa sohalarda tashabbus ko'rsatayotgan, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan faol tadbirkorlar avlodini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, import o'rini bosuvchi va eksportkor mahsulotlar ishlab chiqarishga, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan ilg'or tadbirkorlarning faoliyati ham jamiyat rivoji uchun muhim omil hisoblanadi.

Aytilgan joizki, hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanishini rag'batlantiruvchi biznes muhitini yaratish, mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyati, tadbirkorlarning kasbiy mahorati va bilim darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratish alohida e'tiborni talab qilmoqda.



Tadbirkorlar faoliyatidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni reklama qilish hamda o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalariga ko'maklashish, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va o'z tengdoshlariga o'nak bo'layotgan yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish bu boradagi asosiy vazifalar sirasiga kiradi.

Ushbu masalaning dolzarbligi ishbilarmonlar va mulkdorlarning ma'naviy qiyofasini yangi kun talablari darajasida shakllantirish zarurati bilan bog'liq, albatta. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil — Biznes-ombudsman, O'zLiDeP, Savdo-sanoat palatasi va "Tadbirkor ayol" uyushmasi kabi tashkilotlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, birgina O'zLiDeP tizimida "O'zbekiston — 2030" strategiyasining sifati va o'z vaqtida amalga oshirilishi bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash" yo'nalishidagi 38-44 maqsadlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili ham bu boradagi faoliyat nihoyatda muhim qilindi yoki xabardor qilish shakliga o'tkazildi. Mamlakatimiz hududida yuklarni avtomobilda tashish faoliyati bo'yicha litsenziyalarni bekor



yanada keng imkoniyatlar yaratilayotganidan dalolatidir.

Bu ayni paytda saflariga muttasil ravishda yangi avlod vakillari kirib kelayotgan tadbirkorlar qatlamining ma'naviy qiyofasida ijobiy xislatlar va ezigulikka xizmat qiladigan xususiyatlarni tizimli tarbiyalab borishni zaruratga aylantirmoqda.

ISHBILARMONLIK  
MAS'ULIYATI

Inson o'z ma'naviyatini shaxs sifatida o'zini anglagan va kamolotga yetgan yillardan boshlab umrining oxirigacha shakllantirib, rivojlantirib boradi. Keyingi yillarda yurtimizda

yuksak fazilatli va komil inson sifatida yangilanish va yaratuvchilik ishlariga faol ko'maklashishni talab qiladi.

Shu bilan birga, tadbirkorlarning mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi xislatlarini ham tarbiyalash lozim. Buning uchun quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish zarur:

— har bir tadbirkor hayotida turli vaziyatlarga tushib qolganida uning hayot mobaynida to'plagan tajribasi, insoniy fazilatlari yetakchi rol o'ynaydi;

— tadbirkorlarda muammolar, voqea-hodisalarni real makon va vaqt chegaralarida aniq tasavvur qilish va yechimlarini belgilay olishni rivojlantirishga diqqatni qaratish ulkan yutuqlar omili bo'lishi mumkin;

— tadbirkorlar faoliyatida bir vaqtning o'zida bir qancha muammolar mohiyatini anglash orqali tafakkurni yangi muammolar yechimiga yo'naltirish ham foydadan xoli emas.

Bularning barchasi har bir tadbirkorning o'zini o'zi boshqarish, o'z faoliyatini aniq va to'g'ri tashkil qilish qobiliyati, har qanday ishga shaxsan kirisha bilish va uning bajarilishini nazorat qilish kabi shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega dalolat beradi.

Ayni paytda bu sohada olimlar va mutaxassislarining diqqatini tortayotgan va dunyoning qariyb barcha mamlakatlariga xos bir qator muammolar, ya'ni mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyatini ta'minlash siyosati samarali yo'lga qo'yilishi, tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar o'rtasida monopolistik tendensiyalar yuzaga kelish holatlariga barham berish, bu sohada adolatsiz raqobatning oldini olish va korrupsiya holatlarini bartaraf etish kabilari bilan bog'liq masalalar dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Bu jihatdan, davlat organlari va fuqarolik institutlari, ijtimoiy subyektlar va tashkilotlar faoliyatida amal qilish zarur bo'lgan va bugungi tadbirkorning milliy qadriyatlariga asoslangan zamonaviy dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etishini alohida qayd qilish lozim:

— tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va tadbirkorlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini samarali va tizimli olib borish talabini qamrab olish; qo'shimma amal qilish;

— davlat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish, tadbirkorlarga bu borada aniq va tizimli yordam berish mexanizmini yo'lga qo'yish;

— tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish amalga oshirilayotganda ularni huquqiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash. Bunday tekshiruvlarni muvofiqlashtirish hamda nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyati tekshiruvlari o'tkazilishining qonuniyligiga qat'iy amal qilish;

— tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlarini to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlash. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarining tadbirkorlik faoliyatini bajarishga ta'siri samaradorligini oshirishga ko'maklashish;

— tadbirkorlik subyektlarining huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, ularni rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan samarali faoliyatni yo'lga qo'yish. Ushbu jarayonga tadbirkorlik subyektlari va ularning vakillari keng jalb etilishiga erishish.

Shu bilan birga, har bir tadbirkor o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida nafaqat moddiy ne'matlar, balki ma'naviy boyliklar, tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari, jamiyatda mavjud turli munosabatlarni, ya'ni butun ijtimoiy-ma'naviy hayotni ham yaratadi. Bu jarayonda tadbirkorlik sohasida ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ma'naviy mezonlar va qadriyatlarining ko'piga yangi mazmun bag'ishlab, ba'zilarini qayta tiklashdan iboratdir. Bugungi tadbirkorlarimiz ma'naviyatiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarini o'zlashtirish, xalqning ma'naviy qadriyatlarini an'analarini bilib olish hamda tadririy davom ettirish, rivojlantirish nuqtayi nazaridan yondashish zarurligi davr talabiga aylandi.

Globalashuv jarayonida mafkuraviy kurash o'zining yuqori nuqtasiga chiqayotgan bugungi kunda turli ma'naviy ta'sirlar, avvalo, tadbirkorlarning ongini zaharlash va ulardan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanish oqibatlarini bizga shuni yana bir bor isbotlamodgaki, mana shu qatlam orasida g'oyaviy tarbiya va targ'ibotni keng ko'lamda yoyish, uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan turli ma'rifiy tadbirlar, ta'lim tizimi va xilma-xil targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish kutilgan natijalarni berishi mumkin.

Bularning barchasi bugungi kunda yurtimizda Uchinchi Renaissance poydevorini yaratishdek ezgu maqsadni izchil amalga oshirishga qaratilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida tadbirkorlar ma'naviy qiyofasini yuksaltirish uchun tizimli faoliyat olib borish hozirgi davr talabi va taqozosi, uni takomillashtirish omillari va tamoyillarini belgilaydigan faoliyat mezoniga aylantayotganidan dalolat beradi.

Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishidagi ma'ruzasi esa ana shu yo'nalishdagi faoliyatning joriy yildagi dolzarb vazifalari aniq-tiniq belgilab berilgan hujjat sifatida hozirgi kunlardagi ishlarimizning samarali amalga oshirishini ta'minlash mezonini tarziya nihoyatda katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ayni paytda mazkur yo'nalishdagi dasturlar va chora-tadbirlarning mazmun-mundariyasini tubdan yaxshilash, ushbu sohaning maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli ishlar bilan bog'liq faoliyat qamrab olingani ta'minlash alohida e'tiborni talab qilmoqda.

Shu bilan birga, biror-bir qatlam yoki soha vakillariga xos ma'naviyat tamoyillari o'tla-to'kis mustahkamlashi va ularning yetuk, takomillashgan holatga kelishi uchun ko'p yillar, ba'zida bir necha o'n yil kerak bo'lishi ham ma'lum. O'tgan asrda qariyb 70-yil davomida inkor qilib kelingan va istiqloq yillarida qayta bo'y ko'rsata boshlagan tadbirkorlik harakati va uning vakillariga xos ma'naviy mezonlar hamda tamoyillar shakllanishi ham ana shunday tadririy jarayondir.

Ushbu jarayonning samarali amalga oshirishi uchun jamiyatning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berishi va mazkur yangilanishlar tadbirkorlar qalbi va ongiga singishi hamda mustahkamlanishi dardkor. O'z navbatida, bu taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tgan O'zbekiston jamiyatida "tadbirkor ma'naviyati" tushunchasining vujudga kelishi va mustahkamlanishi jarayonini belgilaydigan tayanch omillar tizimi yangilanishini taqozo qiladi.



ta amaliy chora-tadbir, 3 ta chora-tadbir rejasini hamda 1 ta Shaharsozlik normalari va qoidalari qabul qilinishi belgilandi.

O'tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingga ko'payib, 490 mingga, o'rta tadbirkorlar

qilish hisobidan yuk tashish hajmi 1,5 barobar oshdi.

Beshinchidan, to'g'ri ishlaydigan soliq to'lovchilar faoliyatida tekshirishlar keskin qisqargani muhim omil bo'ldi. Xususan,



## O‘zbekiston va xalqaro maydon

# SAVDO-IQTISODIY HAMKORLIKDAN IKKI TOMON HAM MANFAATDOR



Iroda TOSHMATOVA,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

**Mamlakatlarni o‘zaro bog‘laydigan, do‘stlik rishtalarini mustahkamlaydigan jihatlar ko‘p. Ammo ularning orasida baribir savdo-iqtisodiy aloqalar yetakchilik qiladi. Chunki bu davlatlarning milliy iqtisodiyoti, barcha sohalaridagi rivojlanishi, xalq farovonligini ta‘minlovchi muhim omillardan biridir. Ayni paytda ko‘p tomonlama savdo munosabatlari dunyo iqtisodiy o‘shishida ham katta ta‘sirga ega.**

Shu bois, bugun O‘zbekiston hamkorlik istagidagi barcha davlatlarga eshiklarini keng ochib, jahon maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda. Ko‘plab mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarimiz mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Buni keyingi yillardagi raqamlar, aniq ma‘lumotlar ham ko‘rsatib turibdi.

Ana shunday yaqin hamkorlarimizdan biri Belarus Respublikasi. O‘zbekistonning ushbu davlat bilan ko‘p qirrali munosabatlari, ayniqsa, oxirgi yillarda ancha rivojlandi. O‘tgan hafta Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog‘ida ham ushbu jihat alohida tilga olindi. Xususan, keyingi yillarda qo‘shma korxonalarimiz soni 4 barobarga ko‘payib, o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshgani ta‘kidlandi. Yaqin yillarda ushbu ko‘rsatkichni 1 milliard dollardan ziyodga yetkazish belgilanib, bu borada hukumatlar oldiga aniq vazifalar qo‘yildi. Gap shundaki, Belarus bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsad qilingan, bundan ikki tomon ham birdek manfaatdor. Oliy darajadagi tashrif doirasida imzolangan yangi kelishuvlar esa bunga keng yo‘l ochadi.

### TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARIMIZ 60 DAN ORTIQ DAVLATGA KIRIB BORDI

Yurtimizda yirik forumlar, biznes uchrashuv va xalqaro ko‘rgazmalarni muntazam o‘tkazish yaxshi an‘anaga aylandi. Bunday tadbirlar mahalliy tadbirkorlarimizning yangi hamkorlar topishi, loyihalar, shartnomalar imzolashi, investitsiyalarni jalb etishiga keng yo‘l ochmoqda.

Tashrif doirasida o‘tkazilgan O‘zbekiston va Belarus hududlari ikkinchi forumi ham samarali kelishuvlar, yirik raqamlardagi natijalarga boy bo‘ldi. Forum yakunlari bo‘yicha qiymati 1 milliard dollardan ziyod shartnoma va bitimlar imzolangani buning isboti.

Belarusliklar barcha sohalar, ayniqsa, to‘qimachilik sanoatiga katta qiziqish bildirdi. Gap shundaki, mamlakatimiz iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biriga aylangan to‘qimachilik sanoati jahon bozoriga faol kirib borib, milliy brend sifatida munosib o‘rin egallamoqda. Birgina o‘tgan yilning o‘zida O‘zbekiston 65 ta davlatga qiymati 3,4 milliard dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksport qildi. Bu ko‘rsatkich yurtimiz umumiy eksportining 12,5 foizini tashkil etgan. Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tovarlar (41,6 foiz) hamda ip-kalava (39,2 foiz) asosiy ulushni egalladi.

Xorijlik xaridorlar orasida Belarus ham bor. Ular bizning mahsulotlar sifatini yaxshi biladi va ishonchimizni qozona olgan hamkorlarimizdan biri. Shuning uchun ham forum doirasidagi ikki tomonlama muzokaralar davomida to‘qimachilik yo‘nalishida qiymati 7,6 million dollarlik eksport shartnomalari tuzildi.

— Bu O‘zbekiston va Belarus to‘qimachilik korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikning yangi istiqbollari va samarasidan dalolat beradi, —

deydi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi raisining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi Shahzoda Qo‘chqorova. — Forum ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash va o‘zaro



manfaatli hamkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Unda mahalliy korxonalarimiz bilan birga, Belarus davlatining to‘qimachilik sanoatida ko‘zga ko‘ringan “Mogoteks”, “Polesye”, “Svitank”, “Kamvol” va boshqa yirik kompaniyalari ishtirok etib, o‘z mahsulotlarini namoyish etdi, faol muzokaralarga kirishdi. Aksariyati kelgusida hamkorlik qilishga tayyor ekanini bildirdi. Ushbu davlatga yurtimizdan to‘qimachilik mahsulotlari eksporti oshib bormoqda, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 105 foizga o‘tdi. 2023-yil natijalariga ko‘ra, Belarusga eksport hajmi 50 million dollarni tashkil qildi. Ayni paytda Belarus investitsiyalari ishtirokida “Mark Formelle” brendi ostida tayyor kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, uchrashuvlar davomida “Bellegrom” konserni bilan 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik bo‘yicha qo‘shma “Yo‘l xaritasi” to‘g‘risida bitim imzolandi. Ushbu kelishuv shartnomasi O‘zbekiston va Belarus Respublikasida to‘qimachilik sanoatini

### GOLUBIKA YETISHTIRISH BO‘YICHA ILMIY MAKTAB YARATILADI

Oziq-ovqat xavfsizligi, aholining arzon va sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish masalasi tobora dolzarblashib borayotgan bugungi davrda ushbu yo‘nalishdagi ko‘p tomonlama hamkorlikning ahamiyati yanada ortadi. O‘zbekiston va Belarus o‘rtasida avvalroq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi, fan va agrar ta‘lim sohasida hamkorlik o‘rnatilgan, chorvachilik, veterinariya, o‘simliklar seleksiyasi sohalarida aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada qator qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ammo hozir hech bir soha bir joyda qotib turmayapti. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga ilm-fan, innovatsiyalarning joriy etilishi tarmoqni tubdan yangilash barobarida, ko‘proq loyihalarni amalga oshirish, ilmiy tadqiqotlarni olib borib, hududlarda turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatlarini ochmoqda. Shu maqsadda forum doirasida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Belarus Respublikasi Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati vazirligi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Birgalikda bir qancha yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. Yurtimiz hududida dunyo bozorida eng qimmat rezavor — golubika yetishtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tajriba maydoni yaratish loyihasi shular jumlasidan.

— Bu borada Belarusning rezavor mevalar yetishtirish bo‘yicha jahonga mashhur “Yagodka” fermer xo‘jaligi bilan hamkorlik qilamiz, — deydi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi boshlig‘i Feruza Xo‘jayeva. — Ushbu xo‘jalik yurtimizga “in-vitro” usulida yetishtirilgan golubika ko‘chatlarining elita navlarini yetkazib beradi. Ko‘chatlar akademik M.Mirzayev nomidagi Bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti hududida ajratiladigan 10 gektar yer maydoniga ekilib, ilmiy asosda yetishtiriladi. Buning uchun institut va “Yagodka” fermer xo‘jaligi o‘rtasida

qiymati 200 ming dollarlik uch tomonlama shartnoma hamda loyihani amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” imzolandi.

Golubika nihoyatda qimmatbaho rezavor bo‘lib, dunyo bozorida unga talab yuqori. Shu bois, uni yurtimiz sharoitida yetishtirishni ko‘paytirish iqtisodiy naf keltiradi. Ammo uning diyorimiz iqlimiga bardoshli ko‘chatlarini topishda muammolar bor ekan. Mutaxassislarining aytishicha, mo‘tadil iqlimli hududlardan keltirilgan golubika ko‘chatlarini yozning jazirasidan asrashning imkonini bo‘lsa-da, qishning sovuqlariga bardosh bermasligi kuzatilmoqda. Belarus davlatidan olib kelingan golubika ko‘chatlari esa sovuq haroratda olib borilgan sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan. Endilikda “Yagodka” fermer xo‘jaligidan yurtimiz iqlimiga mos keladigan “Legasi”, “Blyukrop”, “Siyera”, “Chandler”, “Dyuke” kabi istiqbolli navlar olib kelinadi. Ko‘chatlarni ekish joriy yilning mart oyidan boshlanadi va unga belaruslik mutaxassislar ham jalb etiladi. Ajratilgan 10 gektarlik yer maydonining 9 gektarida plantatsiya tashkil etilib, golubika mevalari yetishtirila, qolgan qismida o‘simlik ko‘chatlari tayyorlanadi.

Belarus davlati kartoshkachilik yo‘nalishida ham katta tajribaga ega. Bu tajribani nafaqat o‘rganish, balki hamkorlikda yangi loyihalarni amalga oshirish kutilgan samarani beradi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti hamda Belarus Milliy Fanlar akademiyasi meva-sabzavotchilik va kartoshkachilik ilmiy markazi o‘rtasidagi hamkorlikning bir qismi shu yo‘nalish bilan bog‘liq. Ikki tomon kartoshka seleksiyasini tashkil etish, “in-vitro” usulida yangi navlarni yaratish va kartoshka urug‘chilgining ilg‘or texnologiyalarini tadqiq qilish, zamonaviy usullar asosida kartoshka yetishtirish, xalqaro qo‘shma loyihalar doirasida tadqiqotlar o‘tkazish kabi masalalarda kelishib olindi.

— Hamkorlikda yurtimizdagi mahalliy agroqilim sharoitiga mos kartoshka navlarining ekologik sinovlari o‘tkaziladi, — deydi Feruza Xo‘jayeva. — Belarus seleksiyasiga mansub 5 ta elita va superelita kartoshka navlari olib kelinib, davlat reyestriga kiritiladi. Shuningdek, kartoshkaning “Lileya”, “Palas”, “Yuliya”, “Manifest” va “Skrab” navlaridan 4 tonnadan, jami 20 tonna yuqori avlodli urug‘lik keltiriladi. Ularni Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Andijon, Samarqand va Toshkent viloyati stansiyalariga ekish rejalashtirilgan. Ushbu urug‘liklarning afzalligi shundaki, ular chetdan olib kelinadigan boshqa urug‘larga nisbatan 30 foiz arzon bo‘lish bilan birga, hosildorligi 5-10 foiz yuqori. Bu navlar 100-110 kunda pishadi hamda gektaridan 25-30 tonna hosil olinadi.

Bundan tashqari, Belarus tomoni bilan zig‘irning yangi navlarini, shuningdek, parranda qo‘shiti, broyler tovuqlarini yetishtirish va qayta ishlash, Samarqand viloyatida sutni qayta ishlash korxonasini tashkil etish bo‘yicha ham kelishuvlarga erishildi.

### EKSPORTDAGI ISHONCHLI SHERIK

Ushbu hamkorliklarning bari bevosita qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish

hamda eksport ko‘lamini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida eng jadal o‘sayotgan yo‘nalishlardan biri ham aynan eksportdir. Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatimiz eksportining o‘shish sur‘ati 123,8 foizni tashkil etdi. Yurtimizning tashqi savdo aylanmasi hajmi qariyb 62,6 milliard dollarga yetib, shundan 24,4 milliard dollari eksport hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bunda katta ulushni qishloq xo‘jalik mahsulotlari egallaydi. Xususan, o‘tgan yili O‘zbekiston xorijga qiymati qariyb 1,2 milliard dollarga teng bo‘lgan 1,7 million tonna meva-sabzavot eksport qildi. Bu ko‘rsatkich 2022-yil bilan solishtirganda 1,1 foizga ko‘p.

Mamlakatimizning eksport geografiyasi yildan-yilga kengayib, tadbirkorlarimiz yangi bozorlarga kirib boryapti. Belarus Respublikasi mamlakatimizning yirik 20 ta savdo hamkorlari qatoriga kiradi. Shu bois, forum doirasida O‘zbekiston Eksportchilar uyushmasi Belarusning Mogilyov viloyati Erkin iqtisodiy zonasi bilan hamkorlik memorandumi imzolandi.

— Belarus bilan hamkorligimiz ancha faollashgan va 2022-yilda uyushmamiz ushbu mamlakatning bir qancha assotsiatsiyasi bilan hamkorlik memorandumi imzoladi, — deydi O‘zbekiston Eksportchilar uyushmasi raisi Yorqin Malikov. — Shu tarzda platformamiz o‘zida birlashtirgan minglab eksportchi korxonalarning Belarus biznes doira vakillari bilan hamkorligi yo‘lga qo‘yib kelinmoqda. Yurtimizda Belarus kapitali ishtirokida hamda qo‘shma korxonalar tashkil etish ko‘rsatkichi yil sayin oshyapti. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar eksportida Belarus yuqori o‘rin egallaydi. Xususan, ushbu davlatga eksportda kiyim-kechaklar ulushi 37 foiz, gazlama, ipak matolar 18 foiz, meva-sabzavot 17 foizni tashkil etmoqda. Ularda ko‘plab tayyor mahsulotlarimizga talab katta. Import masalasiga kelsak, Belarusdan, asosan, yog‘och, qurilish materiallari, go‘sh, sut mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilamiz.

Forum doirasida imzolagan hamkorligimiz ikki tomon ishblarmonlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Mogilyov viloyati Erkin iqtisodiy zonasi qator imtiyozlarni taklif etyapti. Masalan, o‘zbekistonlik ishblarmonlar Belarusda o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lsa, ushbu mamlakat qonunchiligiga ko‘ra, bir necha turdagi soliqlar ikki barobargacha qisqartiriladi. Bundan tashqari, memorandumda ko‘ra, u yerda ish olib boradigan yurtdoshlarimiz uchunchi davlatdan bemalol yuk qabul qilib, uni qayta ishlaganda, boj to‘lovlari va qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lamadan turib, boshqa davlatlarga eksport qilish huquqiga ega. Qolaversa, kelishuv shartnomasida har ikki tomonda biznes vakillari uchun turli ko‘rgazmalar, biznes-forumlar tashkil etish nazarda tutilgan.

Uyushma va erkin iqtisodiy zona o‘rtasida ikki tomonlama savdoni yanada kengaytirish bo‘yicha o‘zaro savdo-iqtisodiy ma‘lumotlar almashinuvi ham yo‘lga qo‘yildi. Maqsad — ikki mamlakatdagi ishonchli eksportchi va importchi korxonalarni aniqlab, ularning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali savdo aloqalarini yanada oshirishga qaratilgan.

## Yangicha yondashuvlar



**“Talimarjon” suv ombori Qarshi magistral kanali etagida barpo etilgan. Undagi suv qudratli elektr nasoslari orqali 26,6 metr balandlikkacha ko‘tarilib, Qarshi cho‘li yerlarini obihayot bilan ta‘minlash barobarida, Talimarjon shahri aholisining ham ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini qoplab beradi.**

Yaqin paytga qadar shaharga suv 22 kilometr uzoqlikdagi ombordan uzatish quvurlari va ikkita nasos stansiyasi orqali yetkazib berilardi. Ya‘ni suv birinchi stansiyadan katta quvvatga ega bo‘lgan nasos orqali Nishon, Qarshi, Kasbi, Mirishkor tumanlari hamda energetiklar shahri uchun esa ikkita nasos inshooti havzalariga kelib tushardi. Undan keyin quvvati 250 kilovatt bo‘lgan ikkinchi nasos stansiyasi magistral

suv uzatish quvurlari yordamida Talimarjon shahriga uzatardi. Lekin mazkur tizim shahar aholisini ichimlik suvi bilan uzluksiz ta‘minlay olmasdi. Negaki, keyingi yillarda stansiyalardagi nasoslarning tez-tez ishdan chiqishi hamda suv uzatish quvurlaridagi nosozliklar ta‘minotda uzilishlarga sabab bo‘layotgan edi. Katta quvvatli nasoslar ishdan chiqsa, ularni tuzatish ko‘p vaqt talab qilardi. Magistral quvurlarning 9,8 kilometri

polietilendan bo‘lgani bois, kuchli bosim ularni yorib yuborardi. Oqibatda shahar aholisini suv bilan ta‘minlashda 10-15 kun, ayrim hollarda hatto bir oygacha uzilishlar ro‘y berib turgan.

Prezidentimizning 2020-yil 12-13-noyabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrif davomida berilgan topshiriqqa binoan, 2021-yilda Nishon, Qarshi, Kasbi, Mirishkor tumanlari aholisining ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash maqsadida Nishon tumanida 2 ta, Qarshi tumanidagi Beshkent nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari tayyorlandi. Ular asosida suv ta‘minotidagi nosozliklarga barham berish uchun Samarqanddagi “Akva-texnolog” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan “Talimarjon” suv omboridan suv oluvchi nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish loyihasi ishlab chiqilib, amalga oshirishga kirishildi. 2023-yil mart oyida ta‘mirlash nihoyasiga yetkazildi.

Bunga qanday erishildi? Mutaxassislar fikricha, ushbu jarayonda ilmiy asoslangan, fan-texnikaning so‘nggi yutuqlariga

tayaniib tayyorlangan loyiha muhim o‘rin tutgan va iqtisodiy jihatdan tejamon tizim yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Ya‘ni ilgari katta quvvatli nasoslar orqali ikki bosqichli suv ko‘tarish tizimidan foydalanishning o‘ta samarasizligi, magistral quvurlarda tez-tez yuz beradigan nosozliklar ta‘sirini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab berildi.

Bundan tashqari, birinchi suv ko‘tarish nasos stansiyasidagi 630 kilovattli nasoslar katta mablag‘ va elektr energiyasini behuda sarflashga olib kelayotganini ko‘rsatdi.

Shu bois, yangi loyihadagi mazkur nasoslardan foydalanishdan va ikki bosqichli suv ko‘tarish tizimidan voz kechildi. Ular o‘rniga “Talimarjon” suv omboridagi inshootda suv ichida turadigan, 22 kilovatt quvvatli nasos o‘rnatish orqali shaharga to‘g‘ridan-to‘g‘ri suv yetkazib beruvchi texnologiya taklifi ilgari surildi.

— Aslida, rekonstruksiya ishlarini yuqori quvvatli nasoslarga almashtirish va binolarini qisman ta‘mirlash bilan cheklanish ham mumkin edi. Biroq oradan ko‘p o‘tmay, yana eski ahvol takrorlanar, “eski hammom, eski

tos” qabilidagi holat yuzaga kelardi, — deydi “Qashqadaryo suv ta‘minoti” MCHJ gidravlika bo‘limi boshlig‘i Eshdavlal Aliqulov. — Yangi samarali texnologiyalar qo‘llanilishi tufayli quvurlar texnik holati hisobga olinib, ularda sodir bo‘ladigan nosozliklar oldi olindi. Pirovardiga qariyb bir yildan buyon shahar aholisining ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyoji uzluksiz ta‘minlanmoqda.

Uning yana bir iqtisodiy afzalligi shundaki, bir yilda 770 ming 600 kilovatt-soat elektr energiyasi tejalyapti va natijada suv tannarxi 30-40 foizga kamaydi. Shu bilan birga, stansiyaning uch gektarga yaqin yeridan boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyati vujudga keldi.

Bu loyiha “xamirdan qil sug‘urgandek” oson bitmaganini ham yaxshi bilamiz. Chunki ayrim yuqori idoralar vakillari tomonidan o‘tgan asrning 70-80-yillaridagi eski texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ko‘p urinishlar bo‘ldi. Agar shunday ish tutilgan, millionlab sarf qilingan mablag‘lar evaziga bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermaydigan, o‘ta samarasiz tizim yana qaytdan yaratilardi.

Loyiha mualliflaridan biri — Akmal Soatovning e‘tirof etishicha, uning muqobili nafaqat O‘zbekistonda, balki MDH

mamlakatlarida ham hozircha mavjud emas. Bu tajribani yurtimizdagi ana shunday suv uzatish tizimlarida qo‘llash juda katta samara beradi.

Bunday suv ta‘minoti tizimi hududlar uchun juda qulay, ayniqsa, nasoslarni qishda suvuqdan, yozda issiqdan asrash bo‘yicha muammo bo‘lmaydi. Shuningdek, u inson omilisiz boshqarilishi, ishlash kafolati yuqoriligi bilan ham ajralib turadi. Hozirgacha Qashqadaryo viloyatida o‘rtta nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish va uchta yangisini qurishda ushbu texnologiya qo‘llanildi.

Prezidentimiz o‘tgan yil 23-oktabrda hududlarda ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv tizimini yaxshilash, oziq-ovqat ekinlarini ekish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilishida bu sohada eskirgan nasoslarni energiya tejamoniga almashtirish zarurligini aytgandi. Shuningdek, yig‘ilishda suv bo‘yicha loyihalar qiymatini qayta ko‘rib chiqish, ularda ishlatiladigan materiallarni mahalliy lashtirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgandi. Sohadagi yangi loyihalar esa ana shunday masalalarni hal etishi bilan ahamiyatlidir.

Rauf NURULLAYEV,  
jurnalist





## Teatr kuni

# Bu muqaddas dargohga alohida tayyorgarlik bilan kelish kerak yoxud “Alisher Navoiy” spektaklining umrboqiylik siri

Davlatimiz rahbari o‘tgan yil yakunida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqilishi haqida bejiz gapirmadi. Dasturda pyesalarga ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash, Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish kabi vazifalar nazarda tutilgan bo‘lishi lozimligi esa ayni muddao. Eng quvonarlisi, korxona va muassasalarda oyda bir marta xodimlarning teatrga borishi yo‘lga qo‘yiladigan bo‘ldi. Ajabmas, xodimlar dam olish kunlari oilasini ham bu yerga olib kelishni ko‘ngilga tugsa.

Bugun teatro‘rindiqlari yanato‘laboshladi, komediy spektakllarga tomoshabin sig‘may qolayotganini ham eshityapmiz. Bu yaxshi, albatta. Tarixiy spektakllarga ham qiziqish ortib, faqat bir munosabat bilan emas, har doim tomoshabin oqimi ko‘paysa edi, buyuk siymolarimizni teranroq anglardik.

“Bir munosabat”, deb nimaga ishora qilganimiz sizga ayon. Fevral oyida ikki buyuk mutafakkir — Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi sabab bobokolonlarimizga bag‘ishlangan spektakllar tez-tez sahna yuzini ko‘rib qoladi. Aslida, ular teatr repertuaridan muntazam o‘rin olishi, yoshlarni tarixiy spektakllarga ko‘proq e’tiborli bo‘lishga chorlashi kerak. Chunki teatr sahnasida namoyish etilgan har qanday tarixiy asar bugunning besabr yoshlarini-da ta’sirlantirishi aniq. Jumladan, Uyg‘un va Izzat Sulton muallifligidagi “Alisher Navoiy” pyesasi ham mutafakkir bobomiz biografiyasining eng muhim qirralarini ocha olgani bilan qimmatli.

Spektaklda yoshlar o‘z tasavvuridagi Navoiyni ko‘radi. Zero, 1945-yili Hamza teatrida rejissyor Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnalashtirilgan “Alisher Navoiy” asari sahnaga chiqquncha qayta-qayta ishlangan, uzoq tayyorgarlik ko‘rilgan. San’atshunoslik fanlari doktori, professor Dilfuza Rahmatullayevaning “Tarix va teatr” kitobida rejissyor Nazira Aliyeva Mannon Uyg‘urning o‘ziga aytgan gaplarini bunday xotirlaydi: “Ishni Navoiy davri va ijodini mukammal



o‘rganishdan boshladingiz. Endi bu ishni davom ettirasiz. Men Izzat Sulton va boshqa adabiyotshunos olimlar bilan kelishib qo‘yganman. Teatrdan Navoiy davri va ijodini o‘rganish bo‘yicha yuksak saviyali leksiyalar silsilasini uyushtiramiz. Bu ishga o‘zingiz rahbarlik qilasiz. Hoziroq “zavtruppa”ga aytib, e’lon chiqartiring. Ertaga Izzat Sulton Navoiy haqidagi birinchi leksiyasini boshlaydi”.

Demak, asarni sahnalashtirishga mana shunday katta tadorik bilan kirishildi. Spektakl davomida tomoshabin Navoiyning xalq manfaatli uchun qilgan ishlari, shoirning Astroboddagi hayoti, Mo‘min Mirzoning qatli bilan bog‘liq tarixiy haqiqatlarni ko‘radi, bir muddat o‘sha davrga tushib qolganek bo‘ladi. Ijodiy jamoa Navoiyning insonparvarligini ko‘rsatish maqsadiga to‘laqonli erishgan. Zero,

tomoshabin teatrdan Alisher Navoiy naqadar buyuk shaxs ekani, abadiy barhayotligiga amin bo‘lib qaytadi.

Uyg‘unning yuqoridagi manbada keltirilgan quyidagi fikrlari e’tiborimizni tortdi: “Drama muvaffaqiyatida Uyg‘ur og‘aning xizmatlari juda katta ekanini ta’kidlagim keladi. Og‘a bilan juda ko‘p ishlashga to‘g‘ri keldi. Dramaning har bir ko‘rinishi, har bir sahnasini yozayotganimizda uning bebaho maslahatlari qo‘l kelgan. Og‘a ham rejissyor, ham adabiyotchi, ham dramaturg sifatida bir necha pyesalar yozgan tengi yo‘q odam edi. U tarixni ham, adabiyotni ham, ayniqsa, tilni zo‘r bilardi. Sahnaga asarining tili ajralib turishi kerak. Navoiy davri tili, odamlarning gapirish yo‘llari, muomala madaniyati boshqacha bo‘lgan. Buni Mannon Uyg‘ur yaxshi bilardi, ayniqsa,

aktyorlar talaffuziga e’tibor berardi. Shuning uchun ham Navoiy so‘zlari Abror aka, Olim Xo‘jayev tilida jozibali jaranglagan. Ular shu asosda o‘zlari uchun katta maktab yaratdilar”.

— O‘sha davr siyosati sabab spektakl turlicha qarashlar silsilasida chig‘irliqlardan o‘tardi. Har kecha qo‘yilganda spektakl turli to‘siqlarga duch kelar edi. Muhokamalar-dan birida Oybek qatnashgani, Navoiy va Husayn Boyqaro o‘rtasidagi keskinlikni yumshatishni iltimos qilgani esimdadir, — deb xotirlagan edi mashhur aktyor Zikir Muhammadjonov.

Alisher Navoiy shaxsiga doir hamon bahs talab jihat — Guli obrazi haqidagi fikrlarni o‘rganar ekanimiz, Uyg‘unning “Navoiy obrazini barkamol ochish uchun dramaning konflikti kuchli bo‘lishi va intrigasini kuchaytiradigan voqea kerak edi. Shuning uchun Guli obrazini olib kirganmiz. Navoiyning quruq ilmiy siymosi, davlat arbobi ekani ko‘rsatilsa-yu, uning ichki dunyosi, tuyg‘ulari ko‘rsatilmasa, albatta, drama kuchli chiqmas edi”, degan gaplarini keltirishni joiz bildik.

Spektakl tarixiga nazar solar ekanimiz, uni tomoshabin qalbiga yetkazishda munosib hissa qo‘shgan va qo‘shib kelayotgan O‘zbek Milliy akademik drama teatri aktyor va aktrisalarning ham mazkur sahna asari haqidagi so‘zlariga quloq tutdik.

## Munajat MO‘MINOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Maktabdan shoshib kelgan o‘g‘lim “O‘yi, men Amir Temur haqidagi spektaklni ko‘rishim kerak”, dedi-yu, “Teatrga olib boraymi?” degunimcha uni internetdan izlay boshladi. Adabiyot darsida “Sohibqiron” dramasi o‘tilgan ekan. Ustozi o‘quvchilarni rollarga bo‘lib, matnni o‘qitirgan, agar sahna asari tomosha qilinsa, obrazga kirish oson bo‘lishini aytgan. Jonli ijrolarni darslikdagi matn bilan solishtirgan farzandim spektakldan ko‘p ma’lumotlar olganini aytdi. Ertasi kuni spektaklni ko‘rgan boshqa bolalar ham shu gapni takrorlabdi. Bundan juda quvondim, ko‘nglim yorishdi.



## Rixsi IBROHIMOVA, O‘zbekiston xalq artisti:

— Abror Hidoyatovdan so‘ng xalqimiz tasavvuridagi Navoiy Olim Xo‘jayev bo‘lgan. U bilan hayotining eng so‘nggi damlarigacha birga ishlaganimdan faxrlanaman. Alisher Navoiy siymosi haqida gap ketganda ko‘z o‘ngimizda, avvalo, Olim aka gavdalanadi. Chunki o‘sha paytlarda boshqa teatrlarda ham “Alisher Navoiy” spektakli qo‘yilgan, biroq odamlar Olim Xo‘jayevni ko‘ramiz deb bizning teatrga oqib kelardi. Chunki rejissyorlar Navoiyni xalqqa qay tarzda ko‘rsatish kerakligiga ham jiddiy e’tibor qaratgan. Alisher Navoiy — Olim Xo‘jayevga vijor berilar, birgina mo‘ylovini yopishtirishning o‘ziga qancha vaqt ketardi. Sallasi oq harir doka, shoyi materialdan qilinardi. Sallaga mas’ul Turg‘un Xonto‘rayev kasal bo‘lib qolganidan keyin Navoiyning sallasi qutida ehtiyot qilib saqlanar, spektakldan so‘ng Olim Xo‘jayevning boshidan ikki qo‘llab, avaylab olinardi. Olim aka sahna boshlangunga qadar kiyimim g‘ajim bo‘ladi, deb o‘rindiqqa o‘tirmasdi. Asar boshlanar ekan, sahna ortidan Berta Davidovaning jonli qo‘shig‘i yangrardi: “Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro” kelmadi”. Buning uchun Berta opani maxsus olib kelishardi.

Olim akening ayoli ham aytardi bu qo‘shiqni, ovozi juda chiroyli bo‘lgan. Shu qo‘shiq bilan sahna yorishib, Olim aka — Navoiy paydo bo‘lardi. Jonli qo‘shiq aytilmasa, spektaklda ham jon yo‘qday bo‘lgan o‘shanda.

Bir safar Olim aka Gulini Husayn Boyqaroning haramidan olib chiqib ketiladigan sahnada meni ko‘tarib chiqib ketayotib, qo‘lidan tushirib yuborgan. Vaholanki, men juda nozik qiz bo‘lganman. Yoshi katta bo‘lib qolgani sezilgan o‘shanda. Spektaklning televideniya yozilgan varianti yo‘qligi ham shundan. “Guli mening qizimdek bo‘lib qolibdi”, deb o‘chirtirib yuborgan Olim aka. Gulining o‘limiga bag‘ishlangan “Senga besh bebaho haykal qo‘yurmen”, degan kichkina sahna ko‘rinishi qolgan, xolos.

Turg‘un Azizovning “Alisher Navoiy”si ham juda yaxshi postanovka bo‘ldi. Bu spektaklda, asosan, urush kartinasi, xalq bilan Navoiyning munosabati ko‘rsatildi. Hozirgi kun yoshlari, albatta, bu spektaklni ko‘rishi kerak. Afsuski, spektakl deyarli qo‘yilmaydi. Ko‘p ishtirokchilar yo‘q.

\*\*\*

**Subhat bog‘i Rixsi opa bizga Alisher Navoiy bilan Guli o‘rtasida bo‘ladigan dialoglarning hammasini yoddan aytib berdi. Oradan qancha vaqt o‘tishiga qaramay, matnlar hamon xotirasida qolganidan hayratimizni yashirmadik, aktrisa barcha rollaridagi partnyorlari o‘zlarini ham yoddan bilishini aytib, hayratimizni oshirdi. “Kasal bo‘lib qolsam ham, obrazga kirganimdan keyin tuzalib ketaman”, deydi Rixsi opa. Mana, o‘z ishiga, sahnaga chinakam muhabbat!..**



## Erkin KOMILOV, O‘zbekiston xalq artisti:

— O‘sha paytdagi spektakllarni qayta qo‘yish, klassik asarlarni yo‘qotmaslik kerak. Ayniqsa, buyuk siymolarimiz, tarixiy shaxslarimiz, jaddidlar haqidagi spektakllar sahnadan tushmasligi lozim. Zero, bugun jaddidlar deganda kimlarni tushunasiz, deb savol berilsa, javob berolmaydigan yoshlar

bor. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek kabi bobolarimizni-ku, shundoq ham bilishlari shart. Ular haqida yosh avlodga so‘zlovchi spektakllar bugun ham bor teatrdan. Masalan, “Alisher Navoiy”, “Yulduzi tunlar”, “Mirzo Ulug‘bek” shular jumlasidan. “Alisher Navoiy” spektakliga to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo, ko‘z oldimga Olim Xo‘jayev keladi. Nima desak ham, baribir “Oltin devor”ni G‘ani A‘zamov, “Parvona”ni Obid Yunusov, Edipni Shukur Burhonov o‘zlari bilan olib ketgandek, Olim aka ham o‘zbekning chinakam Navoiysi bo‘lib qoldi.

Mannon Uyg‘ur sahnalashtirgan spektaklda bu buyuk teatr darg‘asi bilan Xondamir rolini o‘ynaganman. “Ey Nasimiy, subh ahvolim diloromimg‘a ayt”, deganda badanlarim titrab ketardi. Turg‘un Azizov sahnalashtirgan “Alisher Navoiy”da esa menga Jomiy roli berilgan. Negadir Husayn Boyqaro rolini o‘ynagim kelardi, keyinroq bu ham nasib etdi.

Bugun xalqimiz spektaklning eng so‘nggi postanovkasida Behzod Muhammadkarimov, Tolibjon Mo‘minov gavdalandirgan Navoiyni ko‘ryapti. Ikkalasi ham hurmatli, o‘ziga yarasha o‘rni bor aktyorlar. Ayniqsa, Behzodda lirikaga

mayillik kuchliroq, g‘azallarni ravon o‘qiyladi. Qaysi davrda, kim tomonidan o‘ynalmasin, xalq buyuk siymolarni tanishi, yaqinroq bilishi kerak. Shundoq ham tomoshabin kelmayapti, deb komediyaga, masxarabozlikka yo‘l qo‘ygan paytlarimiz bo‘ldi. Aslida, teatr, ayniqsa, O‘zbek Milliy akademik drama teatri yo‘l-yo‘lakay kirladigan joy emas, bu muqaddas dargohga alohida tayyorgarlik bilan kelish kerak. Bir paytlar uzoq hududlardan samolyotda kelib, spektakl ko‘rib ketganlarni ko‘rganmiz. Ellikka yaqin buyuk aktyor o‘tib ketdi. Ularning o‘rnini bosadigan aktyorlar esa juda kam.

\*\*\*

Rejissyor Rustam Hamidov O‘zbekiston Milliy akademik drama teatri sahnasida mutafakkir tavalludining 575 yilligiga “Alisher Navoiy” spektaklining yana bir yangi talqinini sahnalashtirdi.

Aktyor Behzod Muhammadkarimov ham donishmand, irodali, doimo xalq g‘amu tashvishida yashab, o‘zi yashagan jamiyatni poklashdek murakkab ishga hayotini bag‘ishlagan adolatparvar, oqil va dono davlat arbobi — komil insonni xalqimizga ko‘rsata oldi.

## Behzod MUHAMMADKARIMOV, teatr, kino va dublyaj aktyori:

— Otam ham, onam ham mumtoz adabiyotga juda qiziqqan. Navoiyga muhabbat shu darajada yuksak bo‘lganini ularning o‘sha zamonlarda urf bo‘lgan magnitofonga Navoiy va Guli bo‘lib ovozlarni yozganidan bilamiz. Biz, farzandlar ham mumtoz adabiyotga muhabbatli bo‘lib ulg‘aydik. Oliyogha “Alisher Navoiy” monologini o‘qib kirganman. Diplom spektaklda Navoiy roli berilgan. Ishiga mas’uliyatdan, fidoyi ishqon degan domlamiz sahna nutqidin dars berardi. G‘azallarni o‘qib topshirardik. Bu 80-yillarda televideniya yozilgan g‘azalxonlik kechalariidagi chiqishlarimda muhim omil bo‘ldi. Suyima G‘aniyeva bilan har bitta g‘azalning mag‘zini chagardik. Boshqa olimlar bilan ham hamkorlikda g‘azal ilmi bilan shug‘ullanardim.



Shu ma’noda aytmoqchimanki, Navoiy obrazini sahnada jonlantirishga dabdurstidan kelib qolmaganman.

Turg‘un aka “Alisher Navoiy” spektaklini sahnalashtirishga kirishganida, men yosh, yangi

aktyor edim teatrdan. Navoiyning yoshligi menga berildi. 7 ta sahnada men, Astrobod sahnasi va yakunda Zikir Muhammadjonov va Yoqub Ahmedov o‘ynardi. Guli rolida — Madina Murdova. Yoshmiz, bilakda kuch, yurakda o‘t bor. Biz ham teatr sahnasida chiqa olishimizni ko‘rsatishdek katta maqsadga erishish uchun jon-jahdimiz bilan ishlaganmiz.

2015-yili rejissyor Rustam Hamidov qaytadan sahnalashtirgan “Alisher Navoiy” spektaklda, yoshim katta bo‘lib qolgani bois, allomaning keksalik davrini ham o‘zim o‘ynadim. Pyesa o‘sha davr ruhi bilan yozilgan bo‘lsa-da, lirik sahnalarni zavqlanib ijro etaman.

Bugun texnika davri bo‘lishiga qaramay, teatrning o‘z ixlosmandlari bor. Xususan, uch soatcha davom etadigan “Alisher Navoiy” spektaklining oxirgi postanovkasida ham necha marta o‘ynagan bo‘lsam, odamlarning spektakl tugaguncha chiqib ketmasligidan xursand bo‘laman. Sahnada Alisher Navoiyning o‘zi,

“Layli va Majnun”da Majnunni gavdalandirgan aktyor sifatida aytishni istardimki, Navoiyni qancha ko‘rsangiz, qancha eshitasangiz, har safar chuqurroq anglab boraverasiz.

\*\*\*

Ha, Navoiyni shunchaki anglab bo‘lmaydi. Qaysi davrda, qanday ishlangan bo‘lmasin, uning shaxsi, faoliyatiga doir sahna asarlarini ko‘rish, kerak bo‘lsa, bir-biriga taqqoslash buyuk qiladi. Spektakldan maqsad — Alisher Navoiyni ulug‘lash, uni boricha ko‘rsatish va yosh avlodga tanitish ekani bilan ahamiyatli.

Qani edi, o‘zimiz teatrga mazkur spektaklni istab borsak, faqat fevral oyida emas, yil bo‘yi repertuardan tushmasligini ta’minlasak... Bu bilan navoiylar, boyyqarolar, majididdinun mansurlar, gulilarni tanimiz. Qalbimizdagi vatanparvarlik hissi ozgina jo‘sh ursa, bunday shukuhga erisha olamiz!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:  
O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 469.  
9800 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova  
Musahhih: Asliddin Abdurazqov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 21:30 Topshirildi — 23:25